



Fidoyilik —
Vatanga xizmat demak!

2023-yil 2-dekabr, shanba,
143 (23.862)-son

**KUN
HIKMATI**

Shogirdidan
arz qilgan kishi
ustoz bo'la
olmaydi

1913-yil aprel oyidan chiqa boshlagan



www.zarnews.uz



https://www.facebook.com/zarnews.uz



@zarnews_uz



https://twitter.com/zarnews_uz



TA'LIM VA TIBBIYOTDA KICHIK MASALA YO'Q

Viloyat hokimi E.Turdimov kecha tibbiyot hamda maktabgacha va maktab ta'limi sohalari mas'ullari bilan uchrashuvlar o'tkazdi.

Tanqidiy-tahliliy ruhda o'tkazilgan uchrashuvlarda ayni paytda mazkur tizimlarda kuzatilayotgan muammo va kamchiliklar, mas'uliyatsizlik haqida so'z bordi. Mutasaddilar oldiga aniq vazifalar qo'yildi.

— Ta'lim va tibbiyot sohalari xalqimizning nafaqat buguni, balki ertangi kuni, farzandlari kelajagi bilan bog'liq, — dedi E.Turdimov. — Bu sohalarida kichik, e'tibordan chetda qoladigan masala yo'q. Har bir holat odamlarning kayfiyatiga, turmush tarziga ta'sir qiladi, davlatga munosabatini shakllantiradi. Afsuski, keyingi paytda bu sohalarida mutasaddilarning mas'uliyatsizligi va o'z vazifasini vijdonan bajarmaslik, davlat tomonidan ajratilgan mablag'lardan noqonuniy foydalanish holatlari kuzatilmoqda. Albatta, buning uchun qonuniy javobgarlik choralari ko'rilmoqda. Lekin bunday holatlar odamlarning mazkur sohalariga ishonchi yo'qolishiga olib kelayotgani tashvishlanarlidir.

Sog'liqni saqlash tizimi vakillari bilan uchrashuvda joriy yilda viloyatdagi davolash-profilaktika muassasalariga 6773 turdagi dori-darmon uchun 139 milliard 770 million so'm mablag' ajratilgani ta'kidlandi. Viloyatda faoliyat ko'rsatayotgan 19 ta farmatsevtika korxonasi tomonidan import qilinayotgan dori vositalariga raqobatbardosh 200 turdagi dorilar ishlab chiqariladi. Ammo bugungi kunda viloyatga yiliga 200 milliard so'mlik 865 nomdagi dori vositalari import qilinmoqda. Eng yomon, hozirda asosan chetdan keltirilgan dori vositalari savdosi bilan shug'ullanayotgan dorixonalar ko'payib bormoqda. Ma'lumotlarga ko'ra, 2020-yilda viloyatda 1260 ta dorixona faoliyat olib borgan bo'lsa, hozirda bu raqam 1800 dan oshib ketgan.

Viloyatdagi markaziy tibbiyot muassasalari atrofi dorixonaga to'lib ketgan. Shifokorlar bemorlarni davolash uchun dorilar ro'yxatini belgilangan standartga asosan retsept blankalariga emas, xususiy sektordagi firma blankalariga yozib, ularni reklama qilmoqda. Davlat shifoxonalariga kelgan bemorlarni

tekshiruvdan o'tish yoki davolanish uchun xususiy tibbiyot muassasalariga yuborayotgan va buning evaziga firma egalari mukofot olayotgan tibbiyot xodimlari uchramoqda.

Tuman, shahar tibbiyot birlashmalarida dori vositalarini saqlash va bemorlarga tarqatishda qonunbuzilish holatlariga yo'l qo'yilayotgani aniq misollar bilan qayd etildi.

Ta'lim sohasi mutasaddilari va pedagoglar bilan uchrashuvda maktabgacha ta'lim tashkilotlari va maktablardagi ta'lim-tarbiya jarayonlari, o'qituvchilarning o'z ishiga munosabati, muassasalarni kuz-qish mavsumiga tayyorlash holati tanqidiy tahlil qilindi.

Xususan, ayrim maktabgacha ta'lim tashkilotlariga ta'minotchilar tomonidan sifatsiz mahsulotlar keltirilayotganligi, tarbiyalanuvchilarga oqsil, kilokalloriyaga boy mahsulotlar berilmayotgani, bu kabi holatlar muassasalardagi brakeraj komissiyasi tomonidan nazorat qilinmayotgani ta'kidlandi. Bir qator tuman va shaharlarda binosi yaroqsiz holga kelgan bog'chalar mavjud bo'lsa-da, hudud rahbarlari bunga e'tibor qaratmagan hamda investitsiya dasturiga taklif bermagan. Natijada ko'plab bog'chalar faoliyati to'xtab qolgan.

Bu yil viloyatdagi 36 ta maktabda birorta ham bitiruvchi oliy ta'lim muassasasiga o'qishga kirmagan. 11 ta maktabda ikki yildan buyon shunday holat kuzatilgan. Viloyatda OTMga hujjat topshirgan bitiruvchilarning 12 ta fandan o'zlashtirish darajasi 55 foizdan past (matematikadan 28,9, fizikadan 29,1 foiz).

Nuroboddagi 19 ta, Past Darg'omdagi 10 ta, Kattaqo'rg'on tumanidagi 5 ta ta'lim muassasasini qishga tayyorlash va ta'mirlash ishlari yakuniga yetkazilmagan. Boshqa tumanlarda ham bunday maktablar mavjud.

Viloyat hokimi maktablarda o'quvchilar davomati pasayib ketgani, o'qituvchilarning o'zi ustida ishlaymay qo'ygani va dars mashg'ulotlariga yuzaki yondashayotgani kuzatilayotganini qayd etdi. Bu esa bolalar ta'lim-tarbiyasiga salbiy ta'sir ko'rsatayotgani, voyaga yetmaganlar o'rtasida huquqbuzarlik holatlari ko'payishiga olib kelayotgani ta'kidlandi. Viloyatdagi maktab o'quvchilarining respublika fan olimpiadalarida va xalqaro tanlovlardagi ishtiroki ham yaxshi emas.

Uchrashuvlarda muhokama etilgan masalalar yuzasidan ikkala soha mas'ullari oldiga aniq vazifalar qo'yildi.

50 DAN ORTIQ TADBIRKORNING MUAMMOSIGA YECHIM IZLANDI

Kattaqo'rg'on shahar hokimligida viloyat hokimining tadbirkorlar bilan navbatdagi uchrashuvi bo'lib o'tdi.

Uchrashuvda huquqni muhofaza qilish organlari rahbarlari, tadbirkorlikka ko'maklashuvchi soha mas'ullari, ishbilarmonlar, ishlab chiqaruvchilar va fuqarolar ishtirok etdi.

Bu galgi uchrashuvda 50 dan ortiq tadbirkorning muammo-

lari tinglandi. Murojaatlarning aksariyati soliq, maishiy xizmat ko'rsatish,

3-dekabr – Xalqaro nogironlar kuni

Bugun umumta’lim maktablari inklyuziv ta’lim sinflari ochilmoqda, ya’ni jismoniy, aqliy, sensor (sezgi) ruhiy nuqsonlari bo’lgan bolalar ham boshqa tengdoshlari bilan birga o’qimoqda. Xo’sh, maktablarda inklyuziv ta’lim qanday yo’lga qo’yilayapti? Toyloq tumanidagi inklyuziv ta’lim sinfi ochilgan maktablarda bo’ldik.

Sarbozor mahallasida joylashgan kimyo-biologiya fanlariga ixtisoslashtirilgan 30-IDUMda eshitishida va miya rivojida nuqsoni bor Botirali Sharipov 2-sinfda ta’lim olmoqda. U maktabga 1-sinfdan kelgan.

INKLYUZIV TA’LIM: MAKTABLAR BUNGA TAYYORMI?

– Bola darsda ko’proq rasm chizishni yaxshi ko’radi, – deydi o’qituvchi Nilufar Faxriyeva. – Xulqi, intizomi yaxshi, biroq tortinchoq. Sinf-doshlariga Botiralin hurmat qilishni, birgalikda do’st bo’lib o’ynashni tushuntirganman. Bolalar ham uni iliq qabul qilishgan. To’g’ri, eshitishida nuqsoni borligi uchun sog’lom bolalar kabi darslarni o’zlashtirilmaydi, lekin harakati bor.

– O’zim har kuni bolamni maktabga olib borib qo’yaman, – deydi Botiralining onasi Yorqinoy Yakubova. – Kechqurun birgalikda dars tayyorlaymiz. O’g’lim maktabdagi hayotidan mamnun, biroq maktabda o’qituvchi-logoped yo’q. Haftada ikki-uch marta tuman markaziga logopedga olib boraman. Sharoitim og’irligi uchun shahardagi ixtisoslashtirilgan maxsus maktab-internatga berolmadim. Agar maktabda o’qituvchi-logoped bo’lsa, yaxshi bo’lardi.

Onaning aytishicha, bola kam eshitadi. Shuning uchun darslarni o’zlashtirishi qiyin kechmoqda.

Qiyot qishlog’i Talliota mahallasida joylashgan 53-umumiy o’rta ta’lim maktabida 3-sinfda inklyuziv ta’lim tashkil etilgan. Ushbu sinfda o’tgan yildan beri shu mahallada istiqomat qiluvchi yengil aqli zaiflik tashxisi qo’yilgan Sunnat Nuriddinov ta’lim olmoqda. Dastlab bolaning o’zi bilan gaplashdik. U maktabga o’zi kelishi, ingliz, ona tili va matematika fanlaridan yaxshi o’qishi, kelajakda militsiya xodimi bo’lishini aytdi. Ammo fanlarga oid savollarimizga javob bera olmad.

– Avval ham nogironligi bor bolalarga yakka tartibda uyida ta’lim berganman, – deydi bolaning sinf rahbari Sohiba To’qsonova. – Lekin u bolalar jismonan zaif bo’lsa-da, aqlan sog’lom edi. Ayniqsa, nogironligi bo’lgan bir qiz bola yaxshi o’qirdi, aytgan darsimni yodlab olardi. Ammo Sunnatda bunday qobiliyat yo’q. Bola siz bilan bemalol muloqotga kirisha oladi, sog’lom bolalardек gaplashadi, biroq darslarni umuman o’zlashtirilmayapti. Meni xavotirga solayotgani bola juda sho’x, doim biror o’quvchiga ozor bermasin deb ko’z-quloq bo’lib turaman. Darsda diqqatim faqat shu bolada bo’ladi, sal chalg’isam, biror ishkal chiqaradi. Boshida savob uchun bolani o’qitishga rozi bo’lgandim, ammo keyingi vaqtlarda juda charchadim. Buni maktab direktoriga ham aytdim. Yaqinda otasini chaqirtirib, bolani maktabdan olishini so’radim. Otasi:

“Itimos sizdan, bolam maktabga kelib, ketsa bo’ldi, o’qimasa ham mayli”, dedi. Nima qilishga hayronman, boshim otqan.

Surishtirsak, ushbu maktabda psixolog shtati vakant ekan. 387 nafar o’quvchiga ega maktabda hamshira ham ishga olinmagan. Aslida, psixolog va hamshirasi yo’q maktabda inklyuziv ta’limga ruxsat berish mumkinmi? Inklyuziv ta’lim sinfi ochishning qonun-qoidasi qanday?

Vazirlar Mahkamasining 2021-yil 12-oktyabrda qaratilgan “Alohida ta’lim ehtiyojlari bo’lgan bolalarga ta’lim berishga oid normativ-huquqiy hujjatlarni tasdiqlash to’g’risida”gi qarori va “Umumiy o’rta ta’lim tashkilotlarida inklyuziv ta’limni tashkil etish tartibi to’g’risida”gi nizomga asosan, o’quvchilarni inklyuziv ta’lim sinflari va boshlang’ich tayanch korreksion sinflarga qabul qilish hududiy xalq ta’limi boshqarmasi huzurida tashkil etilgan psixologik-tibbiy-pedagogik komissiya xulosasiga ko’ra, ota-onalar yoki ularning o’rnini bosuvchi shaxslar roziligi bilan amalga oshiriladi.

Nizomga ko’ra, inklyuziv ta’lim sinflaridagi o’quvchilarga individual ta’lim dasturlarini o’zlashtirishga yordam ko’rsatish uchun maxsus pedagoglar va tyyutorlar (yordamchi pedagog xodimlar) faoliyat ko’rsatishi kerak. Inklyuziv ta’lim sinflari va boshlang’ich tayanch korreksion sinflar ochilgan maktab uchun alohida maxsus pedagog shtat birliklari ajratilishi belgilangan. Ammo yuqoridagi maktablarda maxsus pedagog yoki yordamchi pedagog ishga olinmagan. 30-IDUMda o’qituvchi-logoped bo’lmagani uchun sinf rahbari o’quvchiga darsini to’liq yetkazib berolmayotgan bo’lsa, 53-umumiy o’rta ta’lim maktabida yordamchi pedagog bo’lmagani sababli o’qituvchi charchaganini aytmoqda.

Aslida, inklyuziv ta’lim sinflari-da o’quvchilarga oliy ma’lumotli, shuningdek, tegishli qayta tayyorlashdan o’tgan o’qituvchi yoki defektologlar tomonidan dars berilishi lozim.

Bundan tashqari, inklyuziv ta’lim sinflari va boshlang’ich tayanch korreksion sinflar ochilgan maktablarda o’quvchilarga psixologik yordam berish maqsadida maxsus yordam ko’rsatish xonalari tashkil etish belgilangan. Ammo bizdagi ikki smenada dars o’tiladigan, hatto o’qituvchilar

Yurtimizda imkoniyati cheklangan shaxslarni har tomonlama qo’llab-quvvatlash, ularning teng huquqlilik tamoyillariga asosan jamiyatda o’z o’rnini topishiga ko’maklashish borasida tizimli ishlar amalga oshirilmoqda. Muhimi, ularning ta’lim olishi, kasb-hunar egallashi va o’zlari tanlagan kasblar bo’yicha mehnat qilishi uchun yetarli sharoit yaratilmoqda. Chunki bunday shaxslarning huquqlari Bosh qomusimizning 50-moddasida alohida qayd bo’lib, “davlat bepul umumiy o’rta ta’lim va boshlang’ich professional ta’lim olishni kafolatlaydi”.

uchun xona ajratib

Giyohvandlik oʻzi nima? Asrimizda bu illatning turi va shakllari shu qadar koʻpayib ketdiki, unga bir jumla bilan izoh berish amrimahol boʻlib qoldi. Keyingi yillarda yur-timizda avj olgan “dorixona narkomaniyasi” fenomeni ham fikrimizning isboti. Afsus-ki, uning tuzogʻiga ilinganlar orasida oʻsmir va 30 yoshgacha boʻlganlar koʻpchilikni tashkil etadi.

GIYOHVANDLAR “YOSHARIB” BORMOQDA



Keling, avvalo, bu qanday ishlashi haqida toʻxta-lamiz. Dorixonadan xarid qilinadigan, aslida ogʻriq qoldirish, uyqusizlikni davolash singari maqsad-larda qoʻllaniladigan ayrim dorilar muayyan tarzda foydalanilganda odamga narkotik taʼsir koʻrsatadi. Yaʼni, ularni qabul qilganlar maʼlum vaqt oʻz hushi-da boʻlmasligi yoki rohat his qilishi mumkin. Biroq oʻziga qaram qiluvchi giyohvandlik vositalari singari bu dorilar ham qabul qiluvchilarda koʻnikish hosil qiladi hamda ular vaqt oʻtishi bilan dozani oshirib borishga majbur boʻladi. Vaziyat shu darajaga boradiki, “bemor” yangi dozalardan rohat olmay qoʻyadi hamda yanada kuchliroq taʼsir qiluvchi dorilarga yoki narkotik moddalar isteʼmoliga oʻtadi. Yoshlar koʻpincha shu yoʻl bilan giyohvandlik ola-miga kirib qolmoqda.

Savol tugʻiladi: mazkur dorilar yomon boʻlsa, ularni sotishni taʼqiqlab boʻlmaydimi? Aslida bu


dorilar u yoki bu ogʻir xastalikka chalingan be-morlarni davolashda muhim vosita hisoblanadi. Shu bois tibbiyotda ulardan voz kechib boʻlmaydi. Masalaning ikkinchi tomoni shuki, qonunchilikka koʻra, bu dorilar fuqarolarga retseptsiz sotilishi qatʼiyan taʼqiqqlangan. Xususan, Vazirlar Mahkama-sining 2023-yil 19-avgustdagi 399-son qarori bilan ham yana bir guruh gabapentinoid dori vositalari kuchli taʼsir qiluvchi moddalar roʻyxatiga kiritildi. Bu roʻyxat doimiy ravishda yangilanib boradi hamda undagi dori vositalarining noqonuniy aylanishida ishtirok etish jinoiy javobgarlikka sabab boʻladi.

Ammo javobgarlik xavfi ayrim “uddaburon” dorixonachilarni toʻxtatgani yoʻq. Oʻrganishlar hozirgi kunda ham mazkur dori vositalarini retsept-siz sotish holatlarini borligini koʻrsatmoqda. Shu bois muammoning yechimi jamoat nazoratini talab qilmoqda. Bu ogʻir yumush emas, shunchaki, har bir ota-ona farzandining tarbiyasi, boʻsh vaqti-ni qanday oʻtkazishi bilan qiziqishi, uning xulqida oʻzgarish sezsa, sababini aniqlashga harakat qilishi lozim. Maʼlumki, psixotrop moddalarni isteʼmol qilgan insonda xayolparishonlik, jizzakilik, diqqat-ni jamlay olmaslik singari belgilar kuzatiladi. Agar yoshlarni bu yoʻldan qaytara olsak, muammoning ildizini chopgan boʻlamiz.

Sanjar BOYMIROV,
Respublika ixtisoslashtirilgan narkologiya
ilmiy-amaliy tibbiyot markazi viloyat mintaqaviy
filiali vrach-narkologi.

BIZ HAMISHA SIZ BILAN!

Hayot yoʻllari bir tekis kechmagani singari insonlar ham turfa feʼl, taqdir egalari hisoblanadi. Shu jihatdan, oramiz-da imkoniyati cheklangan, nogironligi boʻlgan shaxslar ham bor. Davlatimiz tomonidan ular ijtimoiy muhofaza qilinadi, huquq va manfaatlarini kafolatlangan. Bu borada davlatimiz xalqaro huquq normalariga ham toʻla amal qilib kelmoqda.



Oʻzbekiston kasaba uyushmalari federat-siyasi va uning Samarqand viloyat kengashi ham bu borada oʻz oldiga qoʻygan maqsad va vazifalar asosida nogironligi boʻlgan xo-dimlar huquqlarini himoya qilishga alohida

eʼtibor qaratadi. Korxona va tashkilotlarda ular uchun munosib mehnat va dam olish sharoiti yaratish jamoa shartnomalarida oʻz aksini topgan. Bundan tashqari, kasaba uyushmalari tomonidan mazkur toifadagi xodimlar va ularning oila aʼzolarining davo-lanishi, dori-darmon va tibbiy reabilitatsiya vositalari bilan taʼminlanishi uchun doimiy ravishda mablagʻ ajratiladi va boshqa ijtimoiy yordamlar koʻrsatiladi.

Butun dunyoda, jumladan, yurtimizda ham 3-dekabr – Xalqaro nogironlar kuni deb belgilangan. Shu kuni ularga yana ham koʻproq eʼtibor qaratiladi, mehr va eʼtibor koʻrsatiladi. Biz ham bugun mamlakatimizda, viloyatimizda istiqomat qilayotgan nogironligi boʻlgan yurtdoshlarimizga oʻz hurmat-eh-timimizni izhor etamiz. Biz hamisha sizning yoningizdamiz, sizni qoʻllab-quvvatlaymiz va yurt taraqqiyoti yoʻlidagi xizmatlaringizni qadrlaymiz!

Suhrob RAFIQOV,
Oʻzbekiston kasaba uyushmalari
federatsiyasi viloyat kengashi raisi.
Musurmon MAMADIYOROV,
kengash qoshidagi “Kasaba Ziyo”
oʻquv markazi direktori.

INSONGA NAF KELTIRISH — OLIY BAXT!

REKLAMA, EʼLONLAR, BILDIRISHLAR / Gazetamiz haftada uch marta - seshanba, payshanba va shanba kunlari chop etiladi / Gazetada chop etilayotgan reklama va eʼlonlar tezkor, samarali va hamyonbop / MUHOJAAT UCHUN TELEFON: 66-233-91-56

Barcha yuridik va jismoniy shaxslar, shu jumladan, chet el investorlari diqqatiga!

Oʻzbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 18-martdagi “Iqtisodiyotda davlat ishtirokini yanada qisqartirish va xususiylashtirishni jadallashtirishga oid qoʻshimcha chora-tadbirlar to

Toshkentdan maktub

Har gal Payariqqa – ota uyimga borganimda meni yo'llar yetaklaydi, shovullayotgan daraxtlar shoxlarini silkitib kutib ham oladi, kuzatib ham qo'yadi, ariqlarda oqayotgan suvlar jilosi avtobus derazasidan ko'zga uriladi. Yillar olislagani sayin bu yo'llar yuragingga yaqin, qadrdon bo'lib boraverar ekan. Yuragimda esa yangidan-yangi niyatlar tug'iladi. Bu gal payariqlik yosh, hali maktab partasidan ketmagan yoki o'zini tutib olgan bo'lsa-da, qalbida she'riyatga bo'lgan katta ishtiyoq bilan qalam tebratayotgan yigit-qizlar, hattoki kekxa yoshdagi qalamkashlarga ham ustozlik qila olgan ajoyib inson, zahmatkash jurnalist, o'z ovozi, qalami va olamiga ega ziyoli ustozim Abdumurod aka Ismatov bilan uchrashdim, suhbatlashdim.

SUT BILAN KIRGAN ISHQ CHIQUAR JON BILAN

Tumanimizning eng ko'hna qishloqlaridan biri – Darvesh shayx qishlog'ida tug'ilib, unib-o'sgan ustoz meni ko'ksida yargirab turgan mukofot - "1-darajali Mehnat faxriysi" ko'krak nishoni bilan kutib oldi.

- Bir umr matbuot sohasida – tumanimiz gazetasi va viloyatimiz matbuotida ishladim. Ishimni, ijodni juda yaxshi ko'rdim, so'zga sadoqatli bo'ldim, shu yoshimda ham qo'limga qalam olaman, kitoblar o'qiyman, - deya so'z boshladi Abdumurod aka. - Otam – Yusuf Haydar o'g'li tumanimizdagi Yangiyo'l jamoa xo'jaligida rais bo'lib ishlagan, unga ot berishgan. Qanchalik ehtiyot bo'lishmasin, otni kechasi uydan olib qochishgan. Shundan so'ng otamni davlat mol-mulkini talon-toraj qilishda ayblab, 7 yilga (1932-1939-yillar) qamatib yuborishgan. Otam qaytib kelgach, onam – Iqboloy Yodgor qiziga uylangan, ular uzoq va ahil umr ko'rishdi. Otam 92 yoshda, onam 100 yoshga kirib vafot etdi.

Ustozning hikoya qilishicha, Darvesh shayx asli toshkentlik bo'lib, madrasalarda ta'lim olgan, jomboylik shayx Xudoydodi Valiga shogird tushgan. Yassaviya tariqatining namoyandalaridan sanaladi. Darvesh shayx ustozining tavsiyasiga ko'ra, biz tomonlarga shayx etib tayinlanadi, qabri ham uning nomi bilan ataladigan Darvesh shayx Azizov qabristonida. O'g'illaridan Tahir shayx yashagan qishloq ham, qabriston ham bugungi kungacha tumanimizdagi qadimiy qishloqlardan biri bo'lib, Tahir shayx deb ataladi.

- Qishlog'imizdagi boshlang'ich sinflar maktabini 1952-yilda tugalladim. Maktabda eng sho'x va a'lochi o'quvchi bo'lganman. O'sha davrdagi o'qituvchilardan – birinchi muallimimiz To'ychi Do'sanov, Abdurashid Ergashevlarini yaxshi eslayman. Yuqori sinflarga borib, adabiyotga qiziqishim ortdi. Tuman markazidagi eng yaxshi maktablardan biri (hozirda ham) 6-maktabga qatnab o'qidim va

Guling bo'lay quchog'ingda, Vatan!

Vatan - bu shunchaki hudud emas. Bu muayyan xalqning o'ziga xosligini tashkil etuvchi shonli tarix, madaniyat, til, an'analar va umumiy qadriyatlar mujassam bo'lgan, olam ahliga ma'lum maydon, aniqroq aytganda, ulug' dargohdir. Vatanga xizmat esa buyuk ajdodlar mangu xotirasi va tengsiz merosga ehtirom ko'rsatish, ulardan qolgan barcha qadriyat va an'analarni bus-butun kelajak avlodga yetkazib berish sharafigidir.



1958-yilda bitirdim. 10-sinfdan boshlab she'r yoza boshladim. Bunda adabiyot o'qituvchilarimizning ta'siri, bilimlari, ruhan ko'llab-quvvatlashlari katta o'rin tutdi. Birinchi she'rim 1958-yilda "Shalola va men" sarlavhasi bilan o'sha paytdagi "Lenin yo'li" - bugungi "Zarafshon" viloyat gazetasida bosilgan. O'sha paytda ushbu gazetada ajoyib shoir Normurod Narzullayev musahhih, keyinchalik adabiy xodim, Tessa Saydaliyev bo'lim boshlig'i bo'lib ishlashgan. Men ona haqida she'rimni olib borganim va bu she'r Normurod akaga juda yoqgan. O'sha she'rdagi misralar hamon yodimda.

Ustozning nutqi hali hanuzgacha ravon, quvvai hofizasi tiniq:

*Ne bor rohatliroq ona ko'ksidan,
Mehr quyoshidan haroratliroq.
Qanday baxt ko'ksiga asta bosh qo'ysang,
Va qalb sadosini tinglasang uzoq...*

(1958-yilda yozilgan.)

A.Ismatov 1965-1970 yillarda Samarqand davlat universitetining filologiya fakultetini tugalladi. Bu yillar unga nafaqat yoshlik shijoati va orzular qanotida parvoz qilgan ilhom baxsh she'rlarni in'om etdi, balki mahoratini oshirdi, bilimini kuchaytirdi, ijodkor do'stlari safini kengaytirdi. O'sha davrlardayoq universitet qoshida tashkil etilgan, dovrug'i O'zbekiston bo'ylab kezzgan "Shalola" she'riyat klubi uni ham she'riyat maydoniga, chinakam adabiyot olamiga olib kirdi.

- O'sha paytda universitetimizda bizdan bir kurs yuqorida, keyinchalik O'zbekiston Xalq shoiriga sa'y-harakat qilsinlar, lekin avval o'z ona tilini ko'zlariga to'tiyo qilib, ehtirom ko'rsatsinlar. Zero, o'z tiliga sadoqat – bu vataniy ishdir".

Mazkur markaz professor-o'qituvchilari tomonidan talabalarni Vatanga sadoqat ruhida tarbiyalash, ularning komil inson bo'lib voyaga yetishlari uchun Vatan saboqlari darslari yo'lga qo'yildi.

Mazkur darslar O'zbekiston Yozuvchilar uyushmasi a'zosi, O'zbekistonda xizmat ko'rsatgan madaniyat xodimi Xosiyat Bobomurodova tomonidan olib borilmoqda. Darslarda talabalar yurtimiz mutafakkirlari, adiblarining Vatan haqidagi mulohazalari, ijod namunalari bilan tanishadilar.

Umedullo MAHMUDOV, Samarqand xalqaro texnologiya universiteti qoshidagi O'zbek tili va madaniyati markazi rahbari.
Asilaxon IB